Konstitutsiya – farovon hayotimiz poydevori

Konstitutsiya – baxtimiz qomusi. Darhaqiqat, 8-dekabr Bosh qomusimiz qabul qilingan sana sifatida yurtimizda keng nishonlanmoqda. Shu qatori O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazida ham Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligi munosabati bilan taniqli siyosiy sharhlovchi Qobilbek Karimbekov ishtirokida davra suhbati bo‘lib o‘tdi. Unda so‘zga chiqqanlar farovon hayotimiz, baxtimiz qomusi bo‘lgan Konstitutsiyamiz qadim tariximiz, boy ma’naviy merosimizni tiklash, yurtimizda obod va farovon hayot qurish, Vatanimizni taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga qo‘shishda muhim huquqiy poydevor ekanligini ta’kidlashdi.